https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Xonxo'jayev Ozodbek
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
magistratura talabasi
E-mail: oxonxojayev@icloud.com
Tel: +998 90 376 38 36

BEQAROR G'ARB: INSON HUQUQLARI TUSHUNCHASINING TARIXIY O'ZGARUVCHANLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqola g'arb davlatlarining inson huquqlariga bo'lgan yondashuvining tarixiy o'zgaruvchanligini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson huquqlari siyosati har bir davrda siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlarga moslashgan va izchillikka ega bo'lmagan. XVI-XIX asrlarda inson huquqlari ekspluatatsiyani yashirish vositasi bo'lgan bo'lsa, XX asrda ular mafkuraviy qurol sifatida ishlatilgan, XXI asrda esa diversity siyosati orqali global standartlarni shakllantirishga urinishlar kuzatilmoqda. Janubiy Afrika misolida tarixiy ekspluatatsiya va zamonaviy siyosiy ta'sirlarning bir-birini to'ldirishi, mahalliy iqtisodiy va madaniy o'zlikni shakllantirish jarayonida g'arbning izchilliksiz siyosatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy diversity siyosati va migratsiya jarayonlari ko'pincha mahalliy madaniyatni susaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni murakkablashtiradi. Tadqiqot yangiligi g'arb siyosatini to'rt bosqichli evolyutsiya modeli asosida konseptual tarzda tasniflashda namoyon bo'ladi. Natijalar global siyosiy hamkorlikda shaffoflikni oshirish va tarixiy kontekstni hisobga olgan holda qaror qabul qilish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, tarixiy o'zgaruvchanlik, kolonial siyosat, migratsiya, diversity, tengsizlik.

Хонхужаев Озодбек
Студент магистратуры

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Университета мировой экономики и дипломатии
E-mail: oxonxojayev@icloud.com
Тел: +998 90 376 38 36

НЕУСТОЙЧИВЫЙ ЗАПАД: ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ПОНЯТИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: Данная статья анализирует историческую изменчивость подхода западных государств к правам человека. Результаты исследования показывают, что политика в области прав человека в каждый исторический период адаптировалась к политическим, экономическим и геополитическим интересам и не обладала последовательностью. В XVI-XIX веках права человека служили средством сокрытия эксплуатации, в XX веке они использовались как идеологическое оружие, а в XXI веке наблюдаются попытки формирования глобальных стандартов через политику разнообразия. На примере Южной Африки показано, что историческая эксплуатация и современное политическое влияние взаимодополняют друг друга, демонстрируя непоследовательную политику запада в процессе формирования местной экономической и культурной идентичности. В то же время современная политика разнообразия и миграционные процессы часто ослабляют местную культуру и усложняют социальное неравенство. Новизна исследования проявляется в концептуальной классификации западной политики на основе четырехэтапной модели эволюции. Результаты подчеркивают необходимость повышения прозрачности в глобальном политическом сотрудничестве и учета исторического контекста при принятии решений.

Ключевые слова: права человека, историческая изменчивость, колониальная политика, миграция, разнообразие, неравенство.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Khonkhujaev Ozodbek
Master's student of
The university of world economy and diplomacy
e-mail: oxonxojayev@icloud.com
phone: +998 90 376 38 36

UNSTABLE WEST: THE HISTORICAL FLUCTUATION OF THE CONCEPT OF HUMAN RIGHTS

Abstract: This article analyzes the historical fluctuation of Western countries' approaches to human rights. The research results indicate that human rights policies in each historical period were adapted to political, economic, and geopolitical interests and lacked consistency. In the 16th-19th centuries, human rights served as a means of concealing exploitation, in the 20th century they were used as an ideological weapon, and in the 21st century attempts to establish global standards through diversity policies are observed. The case of South Africa demonstrates that historical exploitation and contemporary political influence complement each other, showing the west's inconsistent policies in the process of shaping local economic and cultural identity. At the same time, modern diversity policies and migration processes often weaken local culture and complicate social inequality. The novelty of the research is manifested in the conceptual classification of Western policies based on a four-stage evolution model. The results highlight the need to increase transparency in global political cooperation and to consider historical context when making decisions.

Keywords: human rights, historical fluctuation, colonial policy, migration, diversity, inequality.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Kirish

Yevropa davlatlar uzoq asrlar davomida o‘zlarini inson huquqlarining global himoyachisi sifatida taqdim etib kelgan. Demokratik institutlar, huquqiy tenglik va siyosiy erkinlik kabi tushunchalar ko‘pincha g‘arb sivilizatsiyasining asosiy belgilaridan biri sifatida ko‘rsatiladi [14; 45-bet]. Shu bilan birga, tarixiy tajriba bu qarashlarning murakkab va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi. Tarix davomida g‘arb mamlakatlari inson huquqlarini doimiy va izchil himoya qilmagan, aksincha, bu prinsiplar ko‘pincha siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy maqsadlarga moslashtirilgan [3; 30-bet].

Ilmiy muammo shundaki, g‘arbning inson huquqlariga oid siyosati tarixiy jarayonda barqarorlikka ega bo‘lmagan. Masalan, mustamlakachilik davrida bu prinsiplar ekspluatatsiyani adolatli ko‘rsatish vositasi bo‘lgan bo‘lsa, XX asrda ular geosiyosiy raqobat vositasi sifatida ishlatilgan [11; 12-bet], XXI asrda esa “diversity” (xilma-xillik) siyosatini global standartlar yaratishga urinishlar ekanligi kuzatilmoqda. Chunki dunyo davlatlariga xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash asnosida o‘zlarining madaniy ta’sirini yoymoqda va natijada tub madaniy o‘zlik yuqolib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi g‘arb davlatlarining inson huquqlariga nisbatan tarixiy yondashuvlarini chuqur tahlil qilish, ularning izchilliksizligini aniqlash va bu tendensiyaning zamonaviy global siyosatda qanday ifodalanganini ilmiy asoslashdir. Mavzu ayni paytda dolzarb bo‘lib, migratsiya, identitet siyosati, ijtimoiy tengsizlik va global g‘arbning siyosiy roli kabi masalalar bilan bevosita bog‘liq [17; 78-bet].

Metodologiya

Ushbu tadqiqot g‘arb sivilizatsiyasining tarixiy kolonial amaliyotlari va zamonaviy ijtimoiy tengsizlikni o‘rganish maqsadida aralash metodologiya asosida olib borildi. Sifat komponentda postkolonial nazariyotchilar bo’lgan Césaire, Fanon va Said asarlari, shuningdek kolonial siyosatga oid hujjatlar va matnlar diskurs va mazmuniy tahlil orqali o‘rganildi. Ajemo‘g‘li va Robinsonlar,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

shuningdek, Mafumbu, Zhou va Kalumlarning (2022-yil) Janubiy Afrika bo‘yisha qilgan izlanishlari o’rganildi. Miqdoriy komponentda esa BMT, Jahon Banki, hamda xalqaro statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, kolonial hududlarda iqtisodiy tengsizlik va Rossiyada (2025-yil), Germaniya hamda Buyuk Britaniyada esa (2022-yil) migrantlar va mahalliy aholi o‘rtasidagi tafovutlar tavsifiy va o‘zaro bog‘liqlik tahlili yordamida aniqlandi.

Sifat va miqdoriy tahlillar bir nechta manba va metodlarni birlashtirish orqali tekshirilib, kolonial merosning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri nazariy va empirik dalillar bilan mustahkamlandi.

Natijalar

G‘arbning inson huquqlari siyosati to‘rt bosqichda keskin o‘zgargan:

	Davr	Rasmiy tamoyil	Amaliy siyosat	Paradoks
1	XVI–XIX asr	“Sivilizatsiya missiyasi”	Mustamlakachilik, qul savdosi, ekspluatatsiya	Inson huquqlari umuman qo‘llanmagan [4; 23-bet]
2	XIX asr oxiri XX asr boshi	“Abolitsionizm va taraqqiyot”	Qullar ozod qilish, ammo iqtisodiy qaramlik saqlanib qolish	Tenglik deklarativ bo‘ldi [10; 77-bet]
3	XX asr o‘rtasi	“Demokratiya va universal huquqlar”	Inson huquqlarini G‘arb–SSSR raqobatida mafkuraviy qurolga aylantirish	Huquqlar selektiv qo‘llandi [15; 54-bet]
4	XXI asr	“Xilma-xillik va shaxsiy o‘zlik tamoyillari”	Gender, jinsiy orientatsiya siyosatini global normaga aylantirish	Ko‘pchilik jamiyatlar uchun sun’iy bosim [19; 102-bet]

Ushbu 4 bosqichli tamoyil birgina Janubiy Afrika mintaqasi misolida yaqqol namoyon bo‘ladi:

Janubiy Afrikaga dastlab niderlandiyalik mustamlakachilar kelib, mahalliy aholini qullik savdosi orqali iqtisodiy ekspluatatsiya qilishni boshlashgan. Ularning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

asosiy maqsadi dastlab iqtisodiy foyda olish bo‘lib, mahalliy aholini yerga ishlov berish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va savdo faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha o‘rgatish orqali samarali ishlab chiqarish tizimini yaratish edi. Shu jarayonda ular mahalliy aholiga omoch va arava kabi an’anaviy texnik vositalarni ishlatishni o‘rgatib, yer resurslaridan maksimal darajada foydalangan [1; 380-bet].

Keyinchalik Janubiy Afrikada yirik olmos va oltin konlari topilishi bilan vaziyat keskin o‘zgardi. Buyuk Britaniya mamlakatni egallab, mahalliy aholining iqtisodiy imkoniyatlarini cheklashga kirishdi. Ularning asosiy maqsadi konlarda ishlaydigan arzon ishchi kuchini yaratish bo‘lib, mahalliy aholi savdo va mulk huquqlaridan deyarli mahrum qilindi. Hech bir afrikalik mamlakatning 87% oq tanlilarga qarashli yerlarda mulkka ega bo’lishi yoki biznes qilishi qonun bilan cheklab qo’yilgan edi [1; 389-bet]. Shu tariqa, iqtisodiy ekspluatatsiya siyosati nafaqat resurslarni nazorat qilishga, balki mahalliy jamiyatning iqtisodiy mustaqilligini susaytirishga xizmat qilgan.

Yil	**Qonunchilik hujjati**	**Maqsadi**
1809	Gottentotlar to‘g‘risidagi deklaratsiya	Mehnat kuchining harakatlanishini nazorat qilish va cheklash
1879	Mahalliy joylashuv to‘g‘risidagi qonun	Irqiy segregatsiyani rag‘batlantirish
1894	Glen Grey qonuni	Qora tanli aholi uchun alohida hududlar yaratish va ularning iqtisodiy faoliyatini yo‘naltirish
1913	Mahalliy yerlar to‘g‘risidagi qonun	Qora tanli aholining yer sotib olishini va undan foydalanishini cheklash
1927	Qora tanlilarni boshqarish to‘g‘risidagi qonun	Afrikaliklarni, jumladan qirg‘oq hududlaridan majburan ko‘chirishni ta’minlash
1935	Qirg‘oq bo‘yi to‘g‘risidagi qonun	Qora tanlilarning qirg‘oqdagi eng yuqori suv belgisiga yaqin joylashishini va dengiz resurslaridan foydalanishini taqiqlash
1950	Guruh hududlari to‘g‘risidagi qonun	Dengiz bo‘yi va boshqa nufuzli hududlarda faqat oq tanli aholining joylashishini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

		ta’minlash
1960	Alohida qulayliklarni rezervatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirish	Plyajlarda kamsitish va boshqa diskriminatsiya shakllarini joriy etish
1988	Qirg‘oq bo‘yi to‘g‘risidagi qonun	Dengiz resurslarini xususiylashtirish orqali kichik baliqchilik xo‘jaliklarini chetlashtirish
1989	Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun	Tabiiy resurslarni resursga yo‘naltirilgan yondashuv asosida boshqarish va irqiy cheklovlarni davom ettirish
1998	Milliy atrof-muhitni boshqarish to‘g‘risidagi qonun	Tabiiy resurslardan adolatli foydalanishni ta’minlash
2008	Integratsiyalashgan qirg‘oq boshqaruvi to‘g‘risidagi qonun	Qirg‘oq resurslariga oid o‘tmishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish

Janubiy Afrikada inglizlarning apartaid siyosati [21; 8-bet]

Zamonaviy davrda esa, globalizatsiya va g‘arb mentaliteti orqali ijtimoiy tenglik va diversity siyosatini targ‘ib qilish jarayoni olib borilmoqda. Bu jarayon milliy o‘zlik va mahalliy madaniyatni zaiflashtirishga, shuningdek, g‘arb qadriyatlari va iqtisodiy modellari orqali jamiyatni ideologik jihatdan moslashtirishga qaratilgan. Shu tariqa, tarixiy ekspluatatsiya va zamonaviy siyosiy ta’sirlar bir-birini to‘ldirib, mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy o‘zligini shakllantirish jarayonida g‘arbning izchil siyosiy strategiyasini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy tengsizlik va “diversity” siyosati

Bugungi kunda migratsiya va ijtimoiy integratsiya jarayonlari g‘arb davlatlarida turli tengsizlik shakllarini namoyon qilmoqda. Masalan, Rossiyada Markaziy Osiyodan kelgan migrantlar ko‘pincha eng og‘ir mehnat sektorlarida ishlashga majbur bo‘lib, huquqiy himoya zaifligi va past maosh bilan yuzlashadi [8; 113-bet]. Rossiyadagi o‘zbek migrantlarining duch kelayotgan qiyinchiliklari va to‘siqlari iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanmoqda [13; 176-bet]. Germaniya va Buyuk Britaniya sharoitida esa migrantlar quyi ijtimoiy qatlamda qolmoqda, ular uy-joy, ta’lim va boshqa ijtimoiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatiga ega emaslar [16; 65-bet]. Shu bilan birga, AQShda afro-amerikaliklar va turli migrant guruhlar orasida ijtimoiy-siyosiy tengsizlik hali ham davom etmoqda [2; 215-bet].

Geosiyosiy voqealar rivojlanar ekan, mehnat migratsiyasi dinamikasi sezilarli o‘zgarishga uchraydi va bu jarayonni chuqur tahlil qilish talab etiladi [9]. Oxirgi o‘n yillikda g‘arb davlatlarida diversity siyosati keskin kengayib, gender, jinsiy orientatsiya va shaxsiy identitet tushunchalari jamiyatning turli sohalariga keng tatbiq etilmoqda. Ushbu jarayon an’anaviy ijtimoiy qadriyatlar bilan ba’zan to‘qnashib, huquqiy me’yorlar va erkinlik tushunchasini ma’lum darajada mafkuraviy maydonga aylantirmoqda [6; 38-bet]. Shuningdek, “Soft Power” tushunchasi AQSh siyosiy diskursida keng qo‘llanilib, davlatning diplomatik, madaniy va iqtisodiy ta’sir vositalarini ifodalaydi [20; 313-bet]. Hozirgi kunda ushbu kuchdan Xitoy va Italiya kabi davlatlar ta’limda chet elliklarni o’zlariga chaqirish siyosati ostida ularning madaniy o‘zligini so‘ndirib, o’zi uchun resurs sifatida foydalanish rejasini amalga oshirishga harakat qilyapti.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, g‘arb davlatlarining inson huquqlariga bo‘lgan munosabati doimiy va qat’iy prinsipga asoslanmagan, balki har bir davrda o‘z siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga moslab o‘zgartirilgan. Boshqacha aytganda, inson huquqlari tushunchasi g‘arb siyosatida nafaqat idealistik qadriyat sifatida ishlatilgan, balki u iqtisodiy foyda va geosiyosiy ustuvorliklarni ta’minlash vositasi sifatida ham talqin qilingan [14; 45-bet]. Natijada, zamonaviy g‘arb davlatlarida diversity siyosati global normalarni shakllantirishda ishlatilmoqda, lekin bu siyosat ham tarixiy izchillikdan yiroq bo‘lib, ko‘pincha iqtisodiy va siyosiy manfaatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, bu moslashuv migratsiya, ijtimoiy tenglik va jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlarni yanada murakkablashtiradi, chunki huquqiy va siyosiy me’yorlar ko‘pincha strategik va iqtisodiy ustuvorliklarni himoya qilishga xizmat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Muhokama

Olingan natijalar asosida namoyon bo'ldiki, g'arb davlatlarining inson huquqlari siyosati tarix davomida izchillikka ega bo'lmagan va har bir davrda o'zining siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlariga mos ravishda shakllangan. Shu bilan birga, g'arb ichidagi ziddiyatli holat ham yaqqol namoyon bo'ladi: bir tomondan universal tenglik va huquqiy erkinlik targ'ib qilinadi, ikkinchi tomondan esa migrantlar, mahalliy ozchiliklar va turli ijtimoiy guruhlar orasida chuqur tengsizlik saqlanib qoladi.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, g'arbning inson huquqlariga munosabati birinchi marta to'rt bosqichli evolyutsiya modeli asosida konseptual tarzda tasniflandi. XXI asrda tatbiq etilayotgan diversity siyosati esa postkolonial bosimning yangi normativ shakli sifatida talqin qilinadi, bu esa tarixiy izchilliksiz siyosatni zamonaviy global kontekst bilan bog'lash imkonini beradi. Amaliy nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari g'arb davlatlarining inson huquqlariga doir siyosatini tanqidiy tahlil qilish va global siyosiy hamkorlikda shaffoflikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, natijalar global sharq davlatlariga siyosiy qaror qabul qilishda g'arb standartlarini avtomatik qabul qilish o'rniga, tarixiy konteksni va milliy manfaatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Siyosat jamiyatni shakllantiruvchi kuch bo'lib, undagi shaxslar shunchaki davlat xodimi emas, balki bu mexanizm ichidagi tizimning bir bo'lagidir [18; 8-bet]. Shu sababli global jamiyatda o'zlikni saqlab qola oladigan siyosat yuritilsagina g'arbning ta'siridan qochishga va yangi o'ziga xos taraqqiyotga erisha olish mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari g'arb davlatlarining inson huquqlariga bo'lgan yondashuvi tarix davomida izchillikka ega bo'lmaganini ko'rsatadi. XVI-XIX asrlarda inson huquqlari ekspluatatsiyani yashirish vositasi bo'lgan bo'lsa, XX asrda ular mafkuraviy qurol sifatida ishlatilgan va XXI asrda diversity siyosati orqali global standartlarni shakllantirishga urinishlar kuzatilmoqda. Janubiy Afrika

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

misolida tarixiy ekspluatatsiya va zamonaviy siyosiy ta'sirlarning bir-birini to'ldirishi, mahalliy iqtisodiy va madaniy o'zlikni shakllantirish jarayonida g'arbning izchilliksiz siyosatini namoyon qilishi ko'rsatildi. Shu bilan birga, zamonaviy diversity siyosati va migratsiya jarayonlari ko'pincha mahalliy madaniyatni susaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni murakkablashtiradi.

Adabiyotlar

1. Ажемўғли Д., Робинсон Ж. (2024). Мамлакатлар таназзули сабаблари. Тошкент.
2. Castles, S., & Miller, M. (2021). The age of migration (6). Palgrave Macmillan.
3. Césaire, A. (1972). Discourse on colonialism. Monthly Review Press.
4. Fanon, F. (1961). The wretched of the earth. Grove Press.
5. Gopal, P. (2019). Insurgent empire. Cambridge University Press.
6. Globalisation, Human Rights and Education. (2025). Springer.
7. Harvey, D. (2005). A brief history of neoliberalism. Oxford University Press.
8. IOM. (2022). World migration report 2022. International Organization for Migration.
9. Lami, B., Tarasenko, I., Shyshova, O., Voropayeva, T., & Verhun, A. (2022). International migration of human resources in the conditions of social transformations. Economies, *10*(9).
10. Loomba, A. (2005). Colonialism/postcolonialism. Routledge.
11. Mamdani, M. (1996). Citizen and subject. Princeton University Press.
12. Mbembe, A. (2001). On the postcolony. University of California Press.
13. Rasulov, I. (2025). Impact of abolishing quotas on Uzbek migrants in Russia's labor market. Quantum Journal of Social Sciences and Humanities, *5*(4).
14. Said, E. (1978). Orientalism. Pantheon Books.
15. Trouillot, M.-R. (1995). Silencing the past. Beacon Press.
16. UNDP. (2021). Migration and development. UNDP Migration Data Portal.
17. UNDP. (2023). Human development report 2023. United Nations.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

18. Xonxo‘jayev, O. (2025). Byurokratiya va jamiyat. Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education, 4.
19. Zuboff, S. (2019). The age of surveillance capitalism. PublicAffairs.
20. Qurbonova, N. N. (2024). Geosiyosiy atamalarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar. Tarjimonshunoslik: Muammolar, yechimlar va istiqbollar *II* (xalqaro ilmiy-amaliy anjuman).
21. Mafumbu, L., Zhou, L., & Kalumba, A. M. (2022). Exploring coastal access in South Africa: A historical perspective. Sustainability, *14*(7), 3971.